

## ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI

**Turayeva Iroda Sheramatovna,**

*f.f.f.d.(PhD) v/b dots.,*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatining poetik tabiati, xususan, badiiy obraz va metaforik tafakkur masalalari tahlil qilingan. Shoir ijodidagi samimiylilik va obrazlilikning o'zaro aloqasi, tabiat manzaralarining inson ruhiy holati bilan uyg'unlashuvi misollar yordamida yoritilgan. Shuningdek, shoirning an'anaviy mumtoz obrazlarga yangicha talqin berish mahorati va ijtimoiy dardning metaforik ifodalari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar.** Abdulla Oripov, poetika, metafora, badiiy obraz, samimiylilik, tabiat, an'ana, novatorlik, lirik qahramon, ijtimoiy dard.

**Аннотация.** В данной статье анализируется поэтическая природа творчества Героя Узбекистана, народного поэта Абдуллы Орипова, в частности вопросы художественного образа и метафорического мышления. На примерах освещается взаимосвязь искренности и образности в творчестве поэта, гармония природных пейзажей с душевным состоянием человека. Также исследуется мастерство поэта в новой интерпретации традиционных классических образов и метафорическое выражение социальной боли.

**Ключевые слова:** Абдулла Оripov, поэтика, метафора, художественный образ, искренность, природа, традиция, новаторство, лирический герой, социальная боль.

**Abstract.** This article analyzes the poetic nature of the work of the Hero of Uzbekistan, People's Poet Abdulla Oripov, in particular the issues of artistic image and metaphorical thinking. The relationship between sincerity and imagery in the poet's work, the harmony of natural landscapes with the human state of mind are highlighted with examples. The poet's skill in a new interpretation of traditional classical images and the metaphorical expression of social pain are also studied.

**Keywords.** Abdulla Oripov, poetics, metaphor, artistic image, sincerity, nature, tradition, innovation, lyrical hero, social pain.

**Kirish.** Abdulla Oripov adabiyot, she'riyat haqida gapira turib shunday deydi: «Adabiyot, she'riyat obrazlilik bilan tirikdir. She'riyatda samimiyat ham bo'lishi kerak. Shundagina u bir umr esda qoladi», Demak, shoir she'riyat oldiga ikkita asosiy talabni qo'yadi: obrazlilik va samimiylilik. Shubhasiz, g'oyat to'g'ri talablar. Lekin shunisi borki, ularning birinchisi poeziyaning tabiati bilan, ikkinchisi esa ijodkor shaxs - shoir tabiati bilan bog'liq. Albatta, samimiyat juda zarur, lekin obrazlilik birlamchi ekanligi shubhasiz. Adabiyot ilmi badiiy obraz poeziyaning voqelikni badiiy-estetik in'ikos qilishida eng asosiy, birlamchi vosita ekanligini beshak haqiqat deya e'tirof etadi. Zero, so'z san'ati insonning ichki olamini ham, undan tashqaridagi olamni ham badiiy obraz vositasida idrok etib, ularga estetik ideal nuqtai nazaridan munosabatda bo'lgan holda umumlashtiradi va konkret his qilinadigan tarzda aks ettiradi. Ya'ni, badiiy obraz san'atdagi ham tafakkur, ham ifoda shaklidirki, shuning uchun obrazlilik san'atning belgilovchi xususiyati sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Estetika va adabiyotshunoslikka oid ishlarda badiiy obrazning materiali, bir tomondan, real voqelik, ikkinchi tomondan ijodkor shaxsi ekanligi ta'kidlanadi. Agar metafora (hatto uning eng oddiy ko'chim

darajasidagi ko‘rinishi ham) obraz ekanligini e‘tiborda tutsak, bu gap unga ham to‘la tegishli degan xulosa kelib chiqadi. Aslida, buni Arastu yaxshi metafora yarata olish, o‘xshashlikni ko‘ra olish iste‘dodning belgisi deb hisoblaganidayoq e‘tirof etgan. Chunki, o‘xshashlik voqelikda mavjud bo‘lsa, uni ko‘ra olish ijodkor shaxsi bilan bog‘liq, yaxshi metafora esa shu ikkisining birligida yaratiladi. Arastu metafora yaratishni o‘zgalardan o‘rganib, o‘zlashtirib bo‘lmasligini, ya‘ni uning tug‘ma qobiliyat bilan bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

**Biografik yondashuv:** Shoirning bolalik yillari va tabiat qo‘ynida shakllangan shaxsiyati uning uslubiga ta‘siri tahlil qilindi.

**Qiyosiy-tahlil:** Shoirning ilk mashqlari va keyingi davr ijodi o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, salaflari (Oybek, H. Olimjon) ta‘siri o‘rganildi.

**Kontekstual tahlil:** Metaforalarning matn ichidagi emotsional qiymati va ijtimoiy ma‘no qatlamlari (ayniqsa, mustabid tuzum davridagi parda ostidagi ma‘nolar) tahlilga tortildi.

**Muhokama va natijalar.** A.Oripovning ilk ijodi bilan tanishgan kishi unda chor atrofiga shoirona o‘tkir nigoh bilan boqib undan hikmat uqayotgan lirik qahramonga qayta-qayta duch keladi. Shoir tabiat bilan inson, uning o‘y-hislari, quvonch-tashvishlari, kayfiyati orasida o‘xshashliklar topadi va shu o‘xshashliklar yordamida dilidagini izhor qilishga intiladi.

Murg‘ak qalbning tabiat bilan yakkama-yakka muloqoti xudo bergan iste‘dodni kamol toptirgan, san‘atkorona nigoh va didni charxlagan, kuzatuvchanlik, ta‘sirlana olish, hissiy mushohada qilishga qobillik kabi muhim sifatlarni rivojlantirgan. Atrofidagi tengsiz tabiiy go‘zallikni ko‘rolganidan kelgan bolalarcha samimiy hayrat esa tasavvur va taxayyulga qanot bergan. A.Oripov bolaligidanoq tabiat bilan uyg‘unlikda, muttasil muloqotda yashagan. Demak, biz poeziyada ichki va tashqi olamlar bir-biriga qarshi qo‘yiladi hamda mudom bir-biriga o‘tib turadi degan qarashdan kelib chiqamizmi yo poeziyaning asosida o‘xshashlik prinsipi yotadi degan qarashdanmi, baribir, shoirida obrazli, metaforik fikrlashning rivojlanishi uchun zarur muhit mavjud bo‘lgan. Shuning uchun A. Oripovning ilk mashqlaridayoq tabiat obrazli ifoda uchun boy manba bo‘lib xizmat qilganini ko‘rish mumkin.

O‘n yetti yoshida yozgan «Yulduzlar» she‘rini A.Oripov quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Aprel osmoniga ko‘zingni tikib,  
Qanday soz, tunlarni kuzatib qolsang.  
Ko‘k sari xayollar eltsa o‘zingni,  
Qanday soz, yulduzlar ichra yo‘qolsang.

Aprel tongining shukuhi xayolga qanot beradi, bolaligida tabiat bilan uyg‘unlikda yashagan yosh shoir «yulduzlar ichra yo‘qolishni», ona tabiat bag‘riga singib ketishni

orzu qiladi. E'tiborli tomoni, shoir bu orzusini shunchaki emas, aksincha, mazkur orzu qalbini chulg'agan lirik holat, o'sha damdagi kayfiyat his qilinadigan tarzda izhor etyapti. Buning asosi metaforik tafakkur bo'lib, shoir ko'ngildagi kayfiyatni tabiat bilan muqoyasada ifodalashga intilmoqda. Kayfiyat shuki, lirik qahramon o'zini bir dam «yulduzlar ichida yulduz» his qiladi, shu onlarda «shirin tuyg'ular zavqini qitiqlaydi», yana bir orzu esa mana bu satrlarda metaforik ifoda etiladi:

Milt-milt yonayotgan jajji dil so'zing  
Yulduzlar chamani ichra sho'x bo'ylar.

Mazkur misralarda hademay maktabni tamomlab shoir bo'lish umidida poytaxtga yo'l soladigan yosh iste'dodning o'ziga ishonchi barq urib turganini sezish qiyin emas. Bizni ko'proq ifoda yo'sini qiziqtirgani uchun shu ishonch qanday aks ettirilganiga e'tibor qaratamiz. Demak, parchaga diqqat qilsak, unda bir qator metaforalar ishlatilganini ko'ramiz: 1) milt-milt yonayotgan dil so'zi; 2) jajji so'z; 3) yulduzlar chamani; 4) so'z sho'x bo'ylar. Shu metaforalarning matnda birikuvi yosh shoir dilini chulg'agan orzularni, ishonchni ifoda etadi. Ya'ni uning jajji bo'lsa ham aytarga o'z "dil so'zi" bor, bu so'z mitti yulduz kabi «milt-milt» yonadi va «yulduzlar chamani ichra sho'x bo'ylaydi». Xuddi shu metaforalar matnda birikkan holda shoir bo'lishni diliga tugib katta hayotga qadam qo'yishga chog'langan o'smir orzu-niyatlarini ifodalaydi Manavi misralarda esa bu orzu-niyatlar balandroq pardada ifodalanadi:

Deyman: osmonlarning hiloli bo'lsam,  
Xulkar va Zuhrosi bo'lgim keladi.  
Shu go'zal o'lkamda kamolga to'lsam,  
Porloq yulduzlarday kulgim keladi.

Diqqat qilinsa, she'rda ko'chim darajasidagi metaforalar obraz darajasidagi metaforani yuzaga chiqargani va yulduzli osmon obrazi endi metaforik tarzda she'riyat ma'nosini anglata boshlaganini sezish qiyin emas. Eng muhimi, katta yo'lga chiqishga chog'langan yosh shoir dilidagi orzu-umidlar, ertangi kunga nekbin nazar, iste'dod kuchiga ishonch kabi o'y-hislar tabiatga proyeksiya qilingan tarzda, obrazli qilib ifoda etiladi. Yana bitta ta'kidlash zarur bo'lgan nuqta shuki, mazkur ma'nolarning reallashuviga bitta metafora - yulduzlar chamani ichra milt-milt yonayotgan jajji dil so'zi asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni shu metafora she'rda aks etgan kechinma-kayfiyatni yuqoridagicha tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, she'rdagi metaforik obrazni bunday tushunishga izn beruvchi boshqa asoslar ham bor. A.Oripovning o'n besh yillardan keyin yozilgan «Nekrasov hasrati» she'ri bunday boshlanadi:

Pushkin she'ri hali yangrardi mag'rur,  
Lermontov charaqlar nazm osmonida,  
Shoir bo'lish qiyin,  
Shoir bo'lish og'ir

Shunday buyuklarning kakhshonida.

Ikkinchi misradagi «Lermontov charaqlar», «nazm hamda soʻnggi misradagi «buyuklar kakhshoni» metaforasi sheʼriyatni yulduzli osmon obrazi orqali ifodalayotganini koʻrsatadi. Bu parchani «Yulduzlar» sheʼri bilan bogʻlovchi yana shoirning lirik personaj - Nekrasov kechinmalarining oʻzi qachonlardir koʻngildan kechirgan va «Yulduzlar»da aks ettirgan kechinmalar bilan uygʻunligidir. Payti kelib oʻzga shoir hayotidan bir holatni jiddiy qayta yaratarkan, A.Oripov oʻz koʻngildan oʻtgan kechinmalarni unga proyeksiya qiladi. Faraz joiz boʻlsa, shoirning ilk toʻplamini «Mitti yulduz» deb ataganida ham, bizningcha, shu metafora bilan bogʻliqlik bor koʻrinadi.

Tabiatni jonlantirish, unga insonga xos sifatlarni baxsh etish asosidagi metaforalarning ildizlari, yuqorida aytilganidek, juda qadim zamonlardan suv ichadi. A.Oripovga xos poetik tafakkur, uslubning oʻziga xosligi, bizningcha, eng avval shu jihat bilan xarakterlanadi. Umuman, poeziyaga xos mazkur xususiyat A.Oripov ijodida ustuvorlik qiladiki, buning sababi shoirning bolaligi, ona tabiat bagʻrida oʻtgani, u bilan bevosita va tigʻiz muloqotda boʻlganidadir. Shoirning oʻzi ham koʻplab adabiy-tanqidiy va publitsistik chiqishlarida, suhbatlarida buni qayta-qayta taʼkidlaydi. Jumladan, qirqdan oʻtib bolalik sogʻinchi kuchaya boshlagan bir pallada A.Oripov shunday deydi: «Bola koʻzlari hamma narsaga hayrat va qiziqish bilan boqadi. U mahal yulduzlar oʻzgacha yonadi. Daraxtlar boshqacha boʻladi. Togʻlar yanada baland, ulugʻvor, osmon yanada keng, begʻubor, daryolar joʻshqin, shiddatli...» shaxsning feʼl-atvori, sajiyasi bolalikdan boshlab shakllanadi, yaʼni bolalik shaxsning oʻziga xos poydevoridir. Shu oʻrinda «uslub - shaxs» degan qarashni esga olsak, A.Oripov uslubidagi yuqorida aytilgan oʻziga xoslik tabiat qoʻynida oʻtgan bolalikning hosilasi ekani maʼlum boʻladi. Zero, bolalik davri boshqacha, masalan, qaynoq shahar hayoti ichida kechgan shoirning uslubida bunaqa hol kuzatilmasligi, tabiat uning uchun metafora (umuman, obraz)ning asosiy manbai boʻlmasligi ham tabiiydir.

A.Oripov soʻz bilan chizgan tabiat manzaralarida lirik kayfiyat muhrlanadi, ularda obyektiv tasvirdan koʻra subektiv tasvir-voqelikni koʻngildan oʻtkazib berish ustuvor. Shuning uchun shoir sheʼrda tilga olganki, narsa uning uchun katta emotsional qiymat kasb etadi: oʻy-hislariga yoʻgʻriladi, ularga turtki beradi. Bu esa sheʼrning emotsional tonalligini, lirik qahramon koʻnglida kechayotgan jarayon, undagi burilish va evrilishlarni ifodalashda juda muhimdir. Jumladan, «Bahor» sheʼrining boshlanish qismi yoʻgʻrilgan koʻtarinki shodumonlik ruhi keyin, tabiatdagi uygʻonish, jonlanishga batamom befarq, «manguga koʻz yumgan»lar eslanganda oʻzgaradi. Ushbu parchada metaforiklik temetik parallelizm:

Azaliy hukmini oʻqidi hayot,  
Necha bor samo ham koʻmdi quyoshin.  
Iqboli sajdagoh boʻlganlar, hayhot,

O'zlari tuproqqa qo'ydilar boshin.

orqali yuzaga chiqadi: samo har kun quyoshini ko'mgani kabi, insonning ham yaqinlarini bir-bir yerga berishi - hayotning azaliy qonuni. Shoir buni biladi, lekin yo'qotish armonlari hali ohorli, ular dilni vayron etadi. She'rdagi emotsionallik o'zgarib, armondan alamga undan isyonga aylanib boradi. Emotsional bo'yoqlarning o'zgarishiga monand metaforalar ham shunga mos o'zgarib boradi va bu narsa his-tuyg'ular ifodasida qancha muhim bo'lsa, o'quvchining hissiy idrok etishida ham shunchalik ahamiyatga egadir.

A.Oripov she'riyatida tabiat metaforik tafakkurga turtki beruvchi kuch, obrazli ifoda va metaforik obrazlarga xomashyo beruvchi tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi. Shoir uslubining o'ziga xos bu xususiyati shaxs sifatida shakllanishining muhim bosqichlari - bolalik va o'smirlik yillari tabiat bilan uyg'unlikda, bevosita va jonli muloqotda kechgani bilan izohlanadi. A.Oripov biz yuqorida eslatgan suhbatida shunday deydi: «Tabiat ona bo'lsa, jamiyat otadir! Katta ma'nodagi kurashlar, dolg'alar kishini tabiatning qo'ynidan olib kelib jamiyat orasiga tashlaydi. Odam tabiatning qo'ynida-ku, tabiatdek sof, musaffo edi. U jamiyat orasida o'zini qanday tutadi? Endi u birdaniga «katta odam» bo'lib bolaligini unutadimi?! Ko'pincha shunday bo'ladi». Shoirning afsus chekishi bejiz emas, bolalikdagi soflikni to'la saqlab qolish bandaning qo'lidagi kelmasligini yaxshi biladi. Holbuki, kishi ma'naviyati o'sha soflikni qay darajada saqlab qololgani bilan belgilanadi. A.Oripov lirik merosi bilan tanishganda uning ijod onlari o'sha soflikka bot-bot qaytib qalam tebratganiga amin bo'ladi kishi. Birok bu faqat ijodning ilohiy onlarida, faqat ruhan sodir bo'ladi. Endi shoirning o'zi «inoq edim men aslim - tabiat bilan» deb tariflagan yoshlikning musaffo paytlariga butkul qaytish ilojsiz.

Ma'lumki, jamiyatda muayyan bir holatni tasdiqlash uchun tegishli tartibda hujjat - «yorliq» olish zarur. Albatta, buning uchun kishidan «yorliq» bilan tasdiqlanayotgan holat talablariga muvofiqlik talab etiladi. Jamiyat hayotidagi ushbu tartib ko'chma ma'noda "G'afur G'ulom mangu yashaydi" degan fikrni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan mazkur yorliqni shiddatli XX asrdan oldi, uning talablari esa o'lgan, shoirlik iste'dodining o'zi yetarli emas. Demak, metafora bu yerda tavsiflanayotgan obektning ahamiyatini to'laqonli ochib berish uchun xizmat qiladi. Shunga o'xshash muallimlarga bag'ishlangan she'rdagi mana bunday ta'rif bor:

Siz mo'jaz yurakda yoqolgan yog'du

Oqibat quyoshdek socha olur nur.

Mazkur misralarda ishlovchi mehnatining mohiyati va mahsuli metafora yordamida go'zal ifodalangan. Albatta, bu yerda metaforik ma'no milliy mentalitetimizga singib ketgan «bilim - yorug'lik», «olim - quyosh» kabi ba'zi metaforalarga asoslanadi.

Tabiiyki, o'xshashliklarni topishning o'zi pirovard emas, ular dildagini ifodalashga xizmat qilsagina o'zini oqlaydi. Inchunin, ayrim hollarda dildagini ifodalash faqat

metafora orqaligina mumkin bo‘ladi. A.Oripovning 1964-yili yozilgan «O‘zbekistonda kuz» she‘rida mana bu satrlar bor:

Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,  
Mening shodliklarim, ezgu dardlarim -  
Mening ona xalqim...  
Ey qadim, halol,  
Rizqi ona yerga sepilgan xalqim!  
Ushoq chigitni ham etmay deb uvol,  
Million egatlarga egilgan xalqim!

Ushbu misralarni o‘qiganda beixtiyor 60-yillarda xalqimiz qismati haqida bu darajada kuyinib yozolgan, eng muhimi, yozganlarini e‘lon qilolgan shoir topilmasa kerak degan o‘y keladi. Yozganlarini e‘lon qilolgan deb bekorga ta‘kidlayotganimiz yo‘q. Sababi, bu satrlar she‘r butunligida xalqining og‘ir ahvolidan qoniqmayotgan lirik qahramonni namoyon etadi. Mustabid tuzum sharoitida bunday kechinmalarni ifodalash uchun tog‘day yurak kam, avvalo, san‘atkor bo‘lish talab qilinadi.

A.Oripov she‘riyatidagi metaforalarning yana bir boy manbasi borki, unga ham muxtasar to‘xtalmasa bo‘lmaydi. Shoirning ilk ijodiga oid she‘rlarni kuzatganda ularda ijodiy tajriba yetishmaganidan she‘riyatimizda an‘anaviy tarzda ishlatilib kelgan sifatlash, tashbeh va metaforalarning ko‘p uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Albatta, bu tabiiy, chunki boshlovchi ijodkorda o‘z yo‘lini topgunga qadar salaflarga ergashishga moyillik, o‘z ovozi baralla qo‘yishga iymanish, ikkilanish hislari bo‘ladi. Shoirning o‘zi maktab davridagi ijodi haqida: «U mahallardagi mening she‘rlarim mavzu tarafdan ham shakliy jihatdan ham, albatta, taqlid edi». Haqiqatda ushbu e‘tirof maktab davrining o‘zigagina emas, ijodiy faoliyatining ilk bosqichiga ham muayyan darajada taalluqli. An‘anaviy sifatlash, tashbeh va metaforalarning keng qo‘llangani ham, aslida, shu sabablidir. Masalan, ilk she‘rlarda ishlatilgan «xayol daryosi», «shalola-dek bo‘lsa she‘rlarim» («Uchqun»); «yulduzlar chamani», «ipak iz», «osmon gumbazi» («Yulduzlar»); «par bulutlar», «marvarid qorlar», «quyosh qo‘yar yostig‘iga bosh», «sho‘x shalola», «oy suzadi ko‘m-ko‘ksamoda» («Tog‘lar»); «bahor keldi gul sepin yoyib», «qir-adir-da ko‘k maysa - gilam», «butoqlarda jilmayar kurtak» («Bahor») kabi tasvir vositalarida Oybek, H.Olimjon ta‘siri borligi seziladi.

Shoirning ilk ijodidan boshlab tabiat obrazli ifoda uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, «Yulduzlar» she‘ridagi «milt-milt yonayotgan jajji dil so‘zi» va «yulduzlar chamani» metaforalari yosh shoirning orzu va ishonchini ifodalaydi.

«Bahor» she‘rida yellar, tog‘lar va maysalarga insonga xos harakatlar (kaft ishqalamoq, kift ko‘tarmoq) yuklatilishi orqali borliqning uyg‘onish ruhiyati yorqin ochib berilgan.

60-yillarda yozilgan she'rlarda tabiat tasviri ijtimoiy norozilikni pardalash vositasiga aylangan. «O'zbekistonda kuz» she'ridagi «egilgan xalq» va «ezgu dardlar» metaforalari xalqning mute holatidan norozilik va kelajakka bo'lgan umidni ifodalaydi.

Shoir ilk bosqichda an'anaviy sifatlashlardan (masalan, «xayol daryosi», «marvarid qorlar») foydalangan bo'lsa-da, tezda o'zining individual metaforik tizimini yarata olgan.

Abdulla Oripovning metaforik tafakkuri uning «uslub — shaxs» tamoyiliga qanchalik sodiqligini ko'rsatadi. Shoir uchun metafora shunchaki chiroyli bezak emas, balki muayyan mazmun-kayfiyatni ifodalash vositasidir.

Shoir ijodining evolyutsiyasi shaxsiy kechinmalardan ijtimoiy va umuminsoniy dardlarga ko'tarilib borish bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida «so'z erkinligi bo'g'ilgan» bir sharoitda, obrazlilik shoirga o'z millatining og'riqlarini «badiiy pardalagan holda» yetkazish imkonini bergan. Bu esa uning she'riyatiga nafaqat estetik, balki ulkan ijtimoiy-siyosiy qiymat bag'ishlaydi.

**Xulosa.** Shoir she'riyatning hayotiyiligini ikki muhim omil — obrazlilik va samimiylilik birligida ko'radi. Obrazlilik san'atning belgilovchi xususiyati bo'lsa, samimiylilik ijodkor shaxsi bilan bog'liqdir.

A. Oripov uchun tabiat metaforik obrazlar yaratishda tunganmas xomashyo manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu xususiyat shoirning bolaligi tabiat bilan bevosita muloqotda o'tgani va undan hikmat uqish qobiliyati bilan izohlanadi. Shoir tabiat hodisalariga insonga xos sifatlarni berish orqali lirik qahramonning ruhiy holati va emotsional kayfiyatini yorqin ifodalaydi. Shoir ijodida vaqt o'tishi bilan shaxsiy kechinmalar o'rnini ijtimoiy dard egallaydi. U «ezgu dard» va «egilgan xalq» kabi metaforik obrazlar orqali mustabid tuzum davridagi millat qismati va ijtimoiy norasoliklarni badiiy pardalagan holda mahorat bilan aks ettirgan.

Shoir o'z faoliyatining ilk bosqichida salaflari (Oybek, H. Olimjon) an'alariga tayangan bo'lsa-da, tez fursatda an'anaviy obrazlarga yangicha talqin berish orqali o'zining individual uslubini shakllantirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Arastu. Poetika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Yoqubov I. Badiiy tahlil mezonlari va mahorat. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2001.
5. Oripov A. Mitti yulduz.– Toshkent: Yosh gvardiya, 1965.
6. Oripov A. Ehtirom.– Toshkent: O'zbekiston, 1995.